

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF HANDLING APPEALS THROUGH THE INTRODUCTION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE PROSECUTOR'S OFFICE

Zokirov Sherzod Ilxom ogli

doctor of philosophy (PhD) on science in law

Email: sherzokirov@gmail.com

<http://www.orcid.org/0000-0003-2890-9120>

Abstract. This article examines the legal, organizational, and practical aspects of integrating artificial intelligence technologies into the system of handling appeals submitted by individuals and legal entities to prosecution bodies. Based on the experience of the Prosecutor's Office of the Russian Federation, the study explores the potential of AI for automated sorting, classification, analysis of appeals, and generating standard procedural documents. The article highlights key advantages of AI implementation, including increased efficiency, enhanced analytical capacity, transparency, and reduced workload on prosecutors.

At the same time, risks related to information security, protection of personal data, algorithmic bias, and the undefined legal status of AI-generated decisions are analyzed. The author proposes legal and organizational measures to improve the effective and safe integration of AI into prosecutorial activities.

Keywords: artificial intelligence, prosecution bodies, citizen appeals, digitalization, information security, algorithmic bias, Russian prosecution system, electronic appeals, automated analysis, legal framework.

PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IIY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUHOJATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimiga sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy qilishning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Sun'iy intellektni murojaatlarni saralash, klassifikatsiya qilish, avtomatik tahlil qilish va namunali hujjatlarni tayyorlashda qo'llash imkoniyatlari Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi tajribasi misolida o'rganilgan. Shuningdek, Maqolada SI joriy etishning afzalliklari – tezkorlik, ochiqlik, tahlil sifatining oshishi, inson mehnatining yengillashishi kabi omillar yoritilgan.

Shu bilan birga axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, algoritm xolisligi, huquqiy maqomning aniqlanmaganligi kabi xavf-xatarlar ham ko'rsatilgan. Muallif prokuratura faoliyatiga SIn joriy qilish amaliyotini takomillashtirishga oid huquqiy va tashkiliy takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, prokuratura, murojaatlar, raqamlashtirish, axborot xavfsizligi, algoritm xolisligi, Rossiya prokuraturasi, elektron murojaatlar, avtomatlashtirilgan tahlil, huquqiy asoslar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N74>

Kirish. Zamonaviy jamiyatda davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan raqamlashtirish jarayonlarining qay darajada amalga oshirilganiga bog'liqdir. Xususan, prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini qabul qilish, qayd etish, saralash, o'rganish va hal etish jarayoni nafaqat huquqiy

kafolatlar, balki amaliy mexanizmlar nuqtai nazaridan ham yuqori aniqlik va tezkorlikni talab qiladi. Shu bois, so'nggi yillarda murojaatlar bilan ishlash tizimini raqamli transformatsiya qilish, fuqarolarning murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish va shaffoflikni ta'minlash mamlakatlar oldidagi strategik vazifalardan biriga aylandi.

Bu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Dunyo tajribasi, jumladan Rossiya Federatsiyasi prokuraturasida shakllangan amaliyot, SIdan foydalanish murojaatlarni tezkor saralash, avtomatik klassifikatsiya qilish, takroriy yoki yo'nalishsiz murojaatlarni aniqlash, tahlil sifatini oshirish, javob hujjatlari loyihasini yaratish kabi vazifalarni ancha yengillashtirishini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, SI inson omili bilan bog'liq xatolarning oldini olish, qaror qabul qilishda xolislikni oshirish va prokurorlar mehnatini optimallashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni huquqni muhofaza qilish sohasiga joriy etish qat'iy huquqiy yondashuvni, shaffof algoritmlarni, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlashni talab etadi. Algoritmlarning xolisligi, qarorlarning huquqiy maqomi, etik standartlar, axborot xavfsizligi kabi masalalar hali to'liq yechilmagan muammolar qatoriga kiradi. Shu nuqtai nazardan SIni prokuratura faoliyatiga joriy qilish ko'p qirrali, tanqidiy va bir vaqtning o'zida istiqbolli tadqiqot yo'nalishidir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda prokuratura organlarida murojaatlar bilan ishlash jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlarini har tomonlama yoritish maqsad qilindi. Shu boisdan metodologik yondashuv **interdistiplinar** xarakterga ega bo'lib, huquqshunoslik, axborot texnologiyalari va davlat boshqaruvi sohalaridagi ilmiy yondashuvlarni o'zida mujassam etdi.

Birinchidan, maqolada **dialektik metod**dan foydalanildi. U orqali murojaatlarni ko'rib chiqish sohasidagi huquqiy munosabatlarning dinamik rivojlanishi, raqamli transformatsiya sharoitida prokuratura faoliyatining evolyutsion xususiyatlari o'rganildi. Sun'iy intellektning joriy etilishi orqali vujudga kelgan yangi huquqiy kategoriyalar, xatarlar va transformatsiya jarayonlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Ikkinchidan, tadqiqotda **qiyosiy-huquqiy tahlil metodi** asosiy o'rin tutdi. Rossiya Federatsiyasi prokuraturasida murojaatlar bilan ishlashda SIdan foydalanish amaliyoti, normativ-huquqiy asoslar va axborot texnologiyalarining integratsiya darajasi O'zbekistondagi amaldagi tizim bilan taqqoslandi. Qiyosiy tahlil SIni joriy etishda qaysi huquqiy mexanizmlar samarali ekanini, qaysi qoidalar O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish mumkinligini aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, SI texnologiyalarining amaliyotda qo'llanilishiga oid **empirik tahlil** amalga oshirildi. Rossiya prokuraturasida joriy qilingan avtomatlashtirilgan tizimlar, ma'lumotlar tahlili platformalari, murojaatlarni saralash algoritmlari va ularning natijalari haqidagi ochiq ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, SIning qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri, inson omilining kamayishi va xatolar darajasining pasayishi borasidagi statistik materiallar tahlil etildi.

To'rtinchidan, maqolada **manbashunoslik va normativ tahlil metodlari** qo'llanildi. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmlar shaffofligi, prokuratura faoliyatida raqamlashtirishga oid milliy va xorijiy qonun hujjatlari, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari (OECD, Council of Europe, UNCITRAL) o'rganildi. Bu SIning huquqiy maqomi va reglamentatsiyasiga oid ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Beshinchidan, SI ni prokuratura faoliyatiga joriy qilishning ijtimoiy-huquqiy ta'sirini baholashda **sistemali yondashuv va funksional tahlil metodlaridan** foydalanildi. Bu SI ning murojaatlar bilan ishlash tizimidagi vazifalari, uning institutsional rolini, manfaatdor subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda qo'llanilgan ushbu metodlar SI texnologiyalarini prokuratura organlarida joriy etishning afzalliklari va muammolarini xolis, ilmiy asoslangan va har tomonlama yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. Hozirgi davrda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va jamiyatning barcha jabhalarida qo'llanilmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish sohalarida raqamlashtirish jarayonlari tezlashib, turli axborot tizimlari faoliyatga joriy etilmoqda.

Sun'iy intellekt oddiy axborot tizimlaridan farqli o'laroq, inson tafakkuriga xos kognitiv jarayonlarni o'xshaydigan mexanizmlarga ega bo'lib, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Prokuratura organlari faoliyati ham bu tendensiyadan mustasno emas. Prokuror nazorati va murojaatlar bilan ishlashda SI texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari haqida ilmiy va amaliy doiralarda faol muhokamalar olib borilmoqda [1].

Prokuratura organlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ularning faoliyatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash alohida ahamiyatga ega bo'lib, umumiy ish yuklamasining sezilarli qismini tashkil etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari tomonidan 2024 yilda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni [2] talablarining so'zsiz bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Murojaatlarning muddatida, to'liq va xolisona ko'rib chiqilishini hamda qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan aybdor shaxslarning muqarrar javobgarligini ta'minlashga qaratilgan nazorat tadbirlarini tizimli ravishda amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha: – 4 mingdan ortiq prokuror nazorati hujjatlari qo'llanildi (*2023-yilda 3 mingdan ortiq*), 1704 nafar shaxs intizomiy, ma'muriy va moddiy javobgarlikka tortildi (*2023-yilda 712 nafar*).

Bevosita prokuratura organlari tomonidan 273703 ta murojaatlar hal etildi (*2023-yilda 264448 ta*). Fuqarolarning qabuliga, shu jumladan, ularni bevosita prokurorlar tomonidan joylarda qabul qilinishiga jiddiy e'tibor qaratilib, 372501 nafar (*2023-yilda 360300 nafar*) fuqarolarning qabuli ta'minlandi [3].

Murojaatlar orqali jismoniy shaxslar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari faoliyatidagi kamchiliklarni ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zamonaviy axborot texnologiyalari, shu jumladan sun'iy intellekt, bu murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hal etish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Sun'iy intellektni prokuratura faoliyatiga joriy etish orqali murojaatlarni ko'rib chiqishda tezkorlikni oshirish, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish, tipik holatlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordamlashish kabi qator ustunliklarga erishish mumkin.

Shu bilan birga, bu yangicha yondashuv huquqiy-axloqiy masalalarni ham ko'ndalang qo'yadi. Axborot xavfsizligi, algoritmlar xolisligi, inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Prokuratura organlarida SI ni joriy etish, eng avvalo, murojaatlarni ko'rib chiqish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt katta hajmli murojaatlarni avtomatik tarzda saralash, toyifalash va tahlil qilish orqali inson omili talab qilinadigan og'ir mehnat jarayonlarini yengillashtiradi.

Masalan, Rossiya prokuraturasida 2023-yil davomida 6 million 300 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgani qayd etilgan bo'lib, bunday ulkan ma'lumot massivini dastlabki tarzda ko'zdan kechirish va umumlashtirishda SI tizimlari katta yordam berishini ko'rish mumkin.

Xususan, SI yordamida murojaatlarni muayyan belgilari bo'yicha avtomatik klassifikatsiya qilish, turli hudud va mavzular kesimida qaysi muammolar jihatdan fuqarolar ko'proq shikoyat yoki ariza berishayotganini tahlil qilish imkoni paydo bo'ladi. Bu esa, jamoatchilikni qiynayotgan dolzarb muammolarni "real vaqt" rejimida kompleks ko'rish va shunga muvofiq chora-tadbirlarni tezkorlik bilan shakllantirishga zamin yaratadi.

Sun'iy intellekt joriy etilgan axborot tizimlari murojaatlarni nafaqat tahlil qilish, balki ular bo'yicha turli namunali hujjatlar loyihasini avtomatik tayyorlashga ham xizmat qilishi mumkin.

Rossiya prokuraturasida amalga oshirilayotgan "Nadzor-WEB" axborot kompleksi misolida, SI yordamida bir xil turdagi qaror va xatlarni, masalan, prokuror ta'sir chorasi sifatida chiqariladigan qarorlar, da'vo arizalari, murojaat etuvchiga javob xatlari yoki murojaatni vakolatli idoraga yuborish to'g'risidagi xatlar avtomat tarzda tayyorlash funksiyalari ishlab chiqilmoqda.

Bu kabi avtomatlashtirish natijasida, odatda, ko'p vaqt va resurs talab qiluvchi hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari tezlashadi hamda xodimlar o'z e'tiborini tahliliy va strategik vazifalarga qaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, SI texnologiyalari jarayonlarni soddalashtirib, prokurorlarning mehnat xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi.

Murojaatlar bilan ishlash jarayonida SI dan foydalanish fuqarolarning davlat organlari faoliyatidan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Avvalo, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari qisqaradi, har bir murojaat bo'yicha tezkor elektron ijro nazorati o'rnatiladi.

Bundan tashqari, murojaatlarni elektron qabul qilish va qayta aloqa mexanizmini takomillashtirish orqali prokuratura bilan aholi o'rtasida ochiq-oshkora muloqot shakllanadi.

Rossiyadagi raqamlashtirish konsepsiyasida [4] ham prokuraturaning fuqarolar, jamiyat va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun yagona raqamli platforma yaratish, jarayonlarning ochiqligini ta'minlash va fuqarolarning roziligini oshirish asosiy maqsadlardan etib belgilangan edi.

Demak, SI joriy etilgan murojaatlarni ko'rib chiqish tizimi orqali fuqaro o'z arizasining qaysi bosqichda ekanini tezkor bilib turishi, natijalardan xabardor bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamoatchilikning davlat organlariga ishonchini mustahkamlab, huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sun'iy intellekt insoniyat tafakkuriga xos ba'zi vazifalarni ijro etishga qodir bo'lgani holda, uni joriy etishning maqsadi inson omilini tubdan

chetlatish emas, balki inson mehnatini yengillashtirish va qaror qabul qilishda qo'llovchi vosita sifatida foydalanishdir.

Prokurorlik faoliyatida SI texnologiyalari "elektron yordamchi" vazifasini o'tab, murojaatlarni dastlabki tahlildan o'tkazib beradi, huquqiy baza va amaliyotdan tegishli ma'lumotlarni tezlikda topib berishni taklif qiladi hamda shu orqali prokuror qarorining asoslanganlik darajasini oshirishga yordamlashadi.

Masalan, ilg'or xorij tajribasida (Xitoy misolida) ayrim holatlarda "robot-prokuror" tizimi sinovdan o'tkazilgan bo'lib, u muayyan vaziyat bo'yicha bazadagi minglab o'xshash ishlarni tahlil qilib, ayblovl xulosasi bo'yicha tavsiya bera olishi ma'lum qilingan. Bunday tizimlar insonning to'liq o'rnini bosishi mumkin emas va bu masalada ehtiyotkorlik zarur, biroq, ularning mavjudligi sun'iy intellekt imkoniyatlarining naqadar keng ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlari murojaatlar bilan ishlash jarayoniga SIn joriy etish orqali quyidagi **afzalliklarga** erishiladi:

1) murojaatlarni saralash va ko'rib chiqish tezkorlashadi, ortiqcha byurokratik kechikishlar kamayadi;

2) murojaatlarda ko'tarilgan muammolar va qonunbuzarliklarni avtomatik tahlil qilish orqali huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish samaradorligi oshib boradi;

3) tipik holatlar bo'yicha qarorlar, javob xatlari kabi hujjatlarni tayyorlash avtomatlashtirilib, prokuror xodimlarning og'ir mehnat yuki yengillashtiradi;

4) aholi bilan elektron hamkorlik yaxshilanadi, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining hal etilishi ustidan ochiq nazorat o'rnatiladi, bu esa, jamoatchilikning davlat idoralariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini prokuratura organlari faoliyatiga tatbiq etish bilan bog'liq bir qator muammo va xavf-xatarlar mavjudligini alohida ta'kidlash o'rinli. Ushbu xatarlarni bartaraf etmasdan turib tizimni samarali yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

Avvalo, **axborot xavfsizligi masalasi** birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Prokuratura organlari jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ko'plab shaxsiy ma'lumotlar, murojaatlardagi maxfiy ma'lumotlar bilan ish olib boradi. Ushbu ma'lumotlar raqamli shaklga o'tkazilib, axborot tizimlariga yuklanganda, ularni himoya qilish uchun mustahkam kiberxavfsizlik choralari talab etiladi.

Ayni paytda ko'plab tashkilotlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda yetarli darajada ishonchli mexanizmlarga ega emasligi, ba'zi hollarda mijozlarga doir ma'lumotlar ochiq bazalarda saqlanayotgani kuzatilmoqda. Agar prokurorlarga kelib tushayotgan murojaatlar va ular orqali jamlanadigan ma'lumotlar aynan SI yordamida qayta ishlansa, ma'lumotlar sir saqlanishi va tashqi tajovuzlardan himoyasi to'liq kafolatlangan bo'lishi shart.

Rossiya tajribasi misolida raqamlashtirish dasturida ham prokuratura organlarining raqamli infratuzilmasini barpo etishda uning barqaror va uzluksiz faoliyat ko'rsatishi hamda axborot xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanishi konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan edi.

Shu bois, O'zbekistonda ham SI texnologiyalarini joriy etish jarayonida, birinchi navbatda, yalpi axborot tizimlarini, bazalarni va ma'lumot almashinuv kanallarini himoyalash, kiberxavfsizlikni ta'minlash yuzasidan normativ talablar va texnik choralarni ishlab chiqish zarur.

Ikkinchi katta muammo – **huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlardir**. Hozircha ko'plab davlatlar qonunchilik bazasida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha aniq normalarni to'liq shakllantirmagan. Rossiya tajribasida, masalan, 2022-yil holatiga ko'ra "sun'iy intellekt" texnologiyalaridan foydalanishni tartibga soluvchi alohida federal qonun mavjud emasligi oqibatida bu sohada prokurorlik nazoratini amalga oshirish qiyinligi ta'kidlangan. Ya'ni, sun'iy intellekt orqali qabul qilinadigan qarorlar uchun kim javobgar ekani, ular qay darajada yuridik kuchga ega bo'lishi yoki ularni tekshirish mexanizmi qonunlarda ochiq bayon etilmagan bo'lsa, bunday texnologiyalarni amaliy qo'llash huquqiy noaniqlikka olib keladi.

O'zbekistonda ham hozircha "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi alohida qonun yoki prokuratura faoliyatida SI dan foydalanish tartibini belgilovchi maxsus normativ hujjat mavjud emas. Murojaatlarni SI yordamida ko'rib chiqish tizimini amaliyotga tatbiq etish uchun esa, tegishli huquqiy asos zarur bo'ladi.

Jumladan, elektron murojaatlarni avtomatik tahlil qilish, zarurat bo'lsa, ular asosida avtomatik qaror loyihalarini tayyorlash kabi harakatlarning protsessual maqomi va maqbul doirasi **qonunchilik hujjatlarida aniq belgilab qo'yilishi** lozim. Aks holda, sun'iy intellekt ishtirokida tayyorlangan hujjatlar va xulosalarning huquqiy maqomi hamda ular uchun mas'uliyat masalalari bo'yicha savollar tug'ilib, huquqiy bahslarga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, SI ni qo'llash natijasida yuzaga kelgan xatoliklar yoki huquqbuzarliklar uchun mas'uliyatni kim o'z zimmasiga olishi masalasi ham qonunchilikda oydinlashtirilishi zarur.

Xalqaro darajada bu muammolarga yechim topish uchun intiluvchanlik kuzatilmoqda. Masalan, BRIKS davlatlari Bosh prokurorlarining 2025-yilgi deklaratsiyasida [5] sun'iy intellekt sohasida milliy qonunchilik va xalqaro mexanizmlarni yaratish yoki takomillashtirish orqali uni tartibga solishni qo'llab-quvvatlashga chaqiriq qilingan. Ushbu yondashuvdan kelib chiqsak, mamlakatimizda ham SI texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish dolzarb masala sanaladi.

Axloqiy va metodologik muammolar ham chetda qolmaydi.

Birinchidan, SI algoritmlarining chiqargan qarorlarida xolislik va adolat tamoyillari qanday ta'minlanishi muhim masala. Sun'iy intellekt dasturlari ma'lumotlar bazasi asosida ishlaydi, agar bu ma'lumotlarda qandaydir bo'shliq yoki moyillik mavjud bo'lsa, algoritmi shu noto'g'ri moyillikni takrorlab, qarorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, xalqaro axloqiy standartlar SI dan foydalanishda inson qadr-qimmatini hurmat qilish, tazyiq yoki tasnifiy diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik talablarini qo'ymoqda.

Har qanday avtomatlashtirilgan tizim tavsiyasiga yakuniy qaror sifatida qaralmay, prokuror tomonidan albatta qayta ko'rib chiqilishi va huquqiy jihatdan baholanishi shart. Masalan, SI ma'lum bir murojaatni "ahamiyatsiz" deya baholab, uni rad etishni tavsiya qilgan taqdirda ham, ushbu qarorning adolatliligi inson, ya'ni prokuror tomonidan tekshirilishi va tasdiqlanishi lozim. Aks holda, sun'iy intellekt xatosi tufayli ayrim murojaatlar ko'rib chiqilmay qolishi, natijada murojaat etuvchilarning huquqlari poymol bo'lishi xavfi bor.

Yana bir jihat – kadrlar va infratuzilma tayyorgarligidir. Sun'iy intellektni joriy etish faqat texnologiya sotib olish bilan cheklanmay, uni boshqaradigan va undan foydalanadigan malakali kadrlarni tayyorlashni talab qiladi.

Prezident Sh. Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda [6] ham prokuratura organlariga raqamli texnologiyalar va SI ni joriy etishga doir takliflar muhokama qilindi. Shu

asosda 2025-yil 3-noyabrda Prezidentning maxsus farmoni qabul qilinib [7], **“Raqamli prokuratura – 2030”** strategiyasi tasdiqlandi va uni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi.

Rossiya va boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni joriy etish qanchalik murakkab bo'lmasin, uni orqaga surmay, ilmiy asoslangan yondashuv bilan bosqichma-bosqich tatbiq etish kerak. Zero, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti shiddat bilan davom etayotgan hozirgi asrda prokuratura organlari ham o'z faoliyatini zamonaviy vositalar orqali takomillashtirib borishi qonun ustuvorligi va adolatni ta'minlashning ajralmas talabi bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Shu bois, yuqoridagi tahlil va xulosalarga suyanagan holda, milliy qonunchilik va prokuratura amaliyotiga SI ni tatbiq etish yuzasidan quyidagi **takliflar** ilgari suriladi:

1. **Huquqiy bazani mustahkamlash.** Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Yaqinda ushbu yo'nalishda milliy qonunchilikka tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, sun'iy intellekt tushunchasi, sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va vakolatli organ vazifalari belgilandi.

Endilikda “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunda [8] ham prokurorlik faoliyatida axborot texnologiyalaridan, jumladan **SI dan foydalanishning asosiy prinsiplari va doirasi aniq belgilanishi maqsadga muvofiq**. Bunda SI tomonidan shakllantirilgan qaror va xulosalarning huquqiy maqomi, avtomatik tavsiyalar ustidan inson nazorati majburiyigi, shuningdek, texnik nosozliklar yoki xatolar uchun mas'uliyatni tartibga soluvchi normalar qonun darajasida ochiq-oydin bayon etilishi lozim. Shu bilan birga, SI dan foydalanishda inson huquq va erkinliklariga rioya etish, algoritmlarda noxolislik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik kafolatlarini ham qonunchilik hujjatlari darajasida mustahkamlab qo'yish zarur.

2. **Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish.** Sun'iy intellektni prokuratura faoliyatiga joriy etish masalalarida xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar prokuraturalari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Xususan, Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi (IAP) doirasida uyushma a'zolari o'rtasida raqamli dalillarni to'plash va tahlil qilish, SI dan foydalanish etikasi bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar mavjud. Shu kabi forum va seminarlarda O'zbekiston prokuraturasi vakillarining faol ishtirok etishi, o'z tajribalarini taqdim etishi va xorijiy tajribani o'rganishi juda foydalidir.

Bundan tashqari, qo'shni mamlakatlar va asosiy hamkorlar (*masalan, BRIKSga a'zo davlatlar*) prokuratura idoralari bilan **o'zaro memorandumlar asosida SI texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish mumkin**. Masalan, BRIKS davlatlari Bosh prokurorlarining deklaratsiyasida 2024-yil oxiriga qadar barcha a'zo davlatlar prokurorlik xizmatlarida qo'llangan raqamli yechimlar bo'yicha ma'lumot to'plab, tajriba almashish belgilangan. Xalqaro hamkorlik natijasida bizga mos keluvchi eng samarali va xavfsiz texnologiyalar tanlab olinib, vaqt va resurs tejiladi.

3. **Axloqiy kodeks va jamoatchilik nazorati.** Sun'iy intellektni huquqni muhofaza qilishda qo'llashning axloqiy jihatlarini hisobga olgan holda, prokuratura tizimi uchun alohida **ichki axloq kodeksi yoki yo'riqnoma qabul qilish mumkin**. Unda SI dan foydalanganda prokuror amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillar (*masalan, avtomatik tavsiyalarga bo'ysunmasdan*

har doim mustaqil huquqiy baho berish, texnologiyani fuqarolarga zarar yetkazmaydigan tarzda ishlatish, dasturiy qarorlarda noxolislikka yo'l qo'ymaslik va h.k.) belgilab qo'yiladi.

Shuningdek, jamoatchilikning ishonchini oshirish maqsadida murojaatlarni ko'rib chiqishning yangi elektron tizimlarini joriy etishda oshkoralik ta'minlanishi kerak.

Masalan, fuqarolar o'z murojaatlarini **maxsus portal** orqali kiritishi va uning harakatlanishini kuzatib borishi, **zarur hollarda sharh yoki qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin bo'lgan mexanizm yaratish maqsadga muvofiq**. Bunda murojaatlar bilan ishlash avtomatlashtirilgani bilan birga, har bir qaror uchun mas'ul shaxs (prokuror)ning nomi ochiq ko'rsatilishi, fuqaro o'z murojaati qaysi bosqichda ekanini doimo bilib turishi lozim.

Jamoatchilik nazoratini ta'minlashning yana bir usuli – yangi tizim joriy etilgandan keyingi dastlabki natijalar bo'yicha aholiga ommaviy axborot vositalari orqali **hisobot berishdir**. Masalan, murojaatlarni ko'rib chiqish tezkorligi qanday o'zgargani, eski usullarga nisbatan qancha vaqt tejalgani kabi ko'rsatkichlar oshkora e'lon qilinib borilsa, bu islohot samaradorligiga baho berishga ham, uni yanada takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Yakunda shuni ta'kidlash lozimki, prokuratura organlarida murojaatlar bilan ishlashga sun'iy intellektni joriy etish masalasi bugun muhokamadan amaliyotga bosqichma-bosqich o'tish paytidadir.

Yuqorida berilgan takliflar ilmiy-tahliliy asoslangan bo'lib, ularni amalga oshirish prokuratura faoliyatini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish, aholi murojaatlarini ko'rib chiqishda adolat va tezkorlikni ta'minlash kabi ezgu maqsadlarga olib kelishi shubhasiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Карпышева Ю.О. О влиянии возможностей искусственного интеллекта на проактивность прокурорской деятельности / Ю.О. Карпышева. — DOI 10.17150/2411-6262.2025.16(1).10- 17. — EDN VOPSNС // Baikal Research Journal. — 2025. — Т. 16, № 1. — С. 10–17.
2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 21.09.2024 й., 03/24/963/0735-сон
3. <https://prokuratura.uz/#/murojaatlar>
4. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_278651/561b46dda7a288d5f64bb276c8b233982d71bc73/
5. <https://infobrics.org/en/post/60882>
6. <https://president.uz/uz/lists/view/8617>
7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.11.2025 й., 06/25/204/1013-сон // <https://lex.uz/docs/7813706>
8. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.08.2025 й., 03/25/1081/0738-сон // <https://lex.uz/docs/106197>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).